O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

МИНИСТЕРТСВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ИНВЕСТИЦИИ И ИННОВАЦИИ”

Материалы Республиканской научно-практической конференции на тему

“ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”

(24-25 октября 2025 г.)

САМАРКАНД – 2025

4. Mahalliy kadrlar malakasini oshirish: XMIlar tomonidan moliyalashtiriladigan ta’lim dasturlari kengaytirilishi kerak. Masalan, yashil texnologiyalar bo‘yicha maxsus o‘quv markazlari tashkil etilib, mahalliy mutaxassislarni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu loyihalarni boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatishda mahalliy resurslardan foydalanishni oshiradi.

5. Ijtimoiy inklyuziyaga e’tibor berish: XMIlar moliyalashtirgan loyihalar mahalliy jamoalarni, xususan, ayollar va yoshlarni jalb qilishga qaratilishi kerak. Masalan, qishloq hududlarida quyosh energiyasi tarmoqlarini o‘rnatishda mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratilishi va ta’lim imkoniyatlari taqdim etilishi lozim.

6. Xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish: O‘zbekiston XMIlar bilan hamkorlikni kengaytirib, texnologik transfer va innovatsion yechimlarni joriy etishga e’tibor berishi kerak. Masalan, vodorod energiyasi kabi yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish uchun pilot loyihalar ishga tushirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jahon Banki. (2023). Financing Sustainable Development in Emerging Markets. Washington, DC: World Bank Publications.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi: moliyalashtirish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
3. International Finance Corporation. (2024). Green Energy Investments in Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington, DC: IFC.
4. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik. Toshkent: Energetika vazirligi.
5. Asian Development Bank. (2024). Financing Green Technologies in Asia: The Role of Multilateral Institutions. Manila: ADB.
6. O‘zbekiston Milliy universiteti. (2023). Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

Abduhamidov Sarvar Adhamovich
SamISI, Turizm kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent,

TURISTIK MINTAQALARNI RAQAMLASHTIRISH ORQALI TURISTLARNING SAYOHAT YO‘NALISHINI TANLASH IMKONIYATLARI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyati va ular orqali turistik mintaqalarning jozibadorligini oshirish masalalari yoritilgan. Turizm infratuzilmasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali turistlarga qulaylik yaratish, yo‘nalish tanlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda mintaqaviy turizmni samarali boshqarish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yagona “Mintaqaviy turizm portali”ni yaratish

O‘zbekiston turizm brendining xalqaro nufuzini oshirishda muhim omil sifatida taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, raqamlashtirish, mintaqaviy turizm, axborot texnologiyalari, virtual turlar, geoaxborot tizimi, raqamli marketing.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini barqaror rivojlantirish, yangi yo‘nalishlardagi turistik marshrutlar va paketlarni ishlab chiqish, turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirish, turistik infratuzilma ob’ektlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish masalalalari oldimizda turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Shunday ekan, mamalkatimizda mintaqaviy turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini keng tadqiq qilish, O‘zbekictonning mintaqaviy turistik imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llarini izlab topish va buning natijasida mamlakatimizga turistlarni keng jalb qilish dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Hozirgi kunda faol iste’molchi o‘ziga kerakli, xizmatlar haqida individual tasavvurini shakllantiradi va bu taklifga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Natijada turizm industriyasi o‘z tarkibini o‘zgartirib, yangi, zamonaviy turistning xohish-istaklari hisobga olingan turistik ob’ektlarni yaratadi hamda turistlarga xizmat ko‘rsatish sohasiga yashash tarzining qulayligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifatliligini, originalligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yangi faoliyat turlarini jalb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, turizm infratuzilmasini tashkil etuvchi muhit va resurslardan jadal foydalanishga hamda avvallari turistik hisoblanmagan yangi resurslarni (qishloq, agrar va ekologik turizm) muomalaga jalb etishga undaydi. Turizm infratuzilmasi mavjud resurslardan shunchaki foydalanib qolmasdan, balki muhitga nisbatan o‘z individual talabini shakllantirib, o‘zaro ta’sir harakterini o‘zgartiradi.

Turistik mintaqalarni raqamlashtirish turistlarga qulaylik yaratish, ularning yo‘nalish tanlash imkoniyatlarini oshirish va turistik salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, raqamlashtirish jarayonida interaktiv ma’lumotlar bazasi, shaxsiylashtirilgan yo‘nalishlar va qulay infratuzilma yechimlari ishlab chiqilishi kerak.

Turizm sohasida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalari va tizimlarini quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. **Turizm sohasida foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari**

Ta’kidlash lozimki, axborot-kommunikatsiya tizimlari zamonaviy turizm industriyasi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimlar nafaqat turizm

mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish hamda sotish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, balki ularning maqsadli auditoriyaga tez va samarali yetkazilishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar turizm sohasida yangi marketing kanallarini shakllantirish, xizmatlarni personallashtirish, mijozlar bilan interaktiv aloqani mustahkamlash va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, turizm sohasidagi raqamli marketing vositalari turistik oqimlarni tahlil qilish, mijozlarning talab va istaklarini aniqlash hamda ularga mos xizmatlarni taklif etish imkonini berib, soha samaradorligini yanada oshirishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasining turizm mintaqalarida turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda asosiy turistik resurslar to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumot hamda statistikaning yetarli darajada mavjud emasligi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa samarali rejalashtirish va boshqarish jarayonlarini murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan, turizm sohasida mavjud axborot tizimlarining holatini tahlil qilish, axborot texnologiyalarini keng qo‘llagan tarmoqlarni o‘rganish hamda axborot tizimlaridan foydalanish asosida mintaqaviy turizmni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar raqamli transformatsiya jarayonlarini joriy etish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlarni raqamlashtirish hamda turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari taraqqiyotining yo‘nalishlaridan biri turistik ma’muriyat faoliyatiga saytlar amaliyotining joriy etilishidir. Deyarli cheklanmagan imkoniyatlarga ega bo‘lgan Internet mintaqalar turistik ma’muriyatlari faoliyati uchun ulkan ahamiyatga ega, chunki u nisbatan past narxda jahondagi odamlarga katta miqdorda turistik mahsulotlar va xizmat-lar to‘g‘risidagi axborotni yetkazadi. Biroq, turizm mintaqalarining va turizm korxonalarning saytlarini faqatgina tijorat vositasi sifatida qarab bo‘lmaydi, ular butunjahon Internet tarmog‘ida, eng avvalo, mintaqani namoyish etadi hamda uning maqbul imidji shakllanishiga ko‘p jihatdan ko‘maklashadi.

Shularni hisobga olib, 2024 yil davomida O‘zbekistonning 5 ta turizm mintaqalaridagi turizmga oid veb-saytlar dizayni va ma’lumotlar bazasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, turizm sohasida raqamli marketing va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda veb-saytlarning vizual jozibadorligi va foydalanuvchiga moslashuvchanligini oshirish bo‘yicha xali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar anchagina. O‘z navbatida, veb-saytlar dizayni va foydalanish qulayligini yaxshilash orqali mintaqaviy turizm salohiyatini oshirish va sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlarini kuchaytirish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, turizm mintaqalarida tayyorlangan veb-saytlarning talab darajasida emasligi, ayrim saytlarning talab darajasida ishlanmaganligi mavjud turistik mahsulotning sotilishiga hamda, turizm mintaqasining turistik imidjiga salbiy ta’sir qilishi aniqlandi. O‘zbekistonning turizm mintaqalaridagi veb-saytlarning samaradorligini oshirish maqsadida ularning axborot bazasini kengaytirish, boshqarish, yuklanish va axborotlarni tezda yangilab turish jarayonlarini amalga oshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi turizm bozorining samaradorligini oshirish va turizm mintaqalarining jozibadorligini kuchaytirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, turizm mintaqalari uchun shakllantiriladigan veb-saytlarga mintaqa turistik obidalarining 3D, 5D yoki 7D modellarini joylashtirish tavsiya etiladi. Bu texnologiyalar yordamida virtual turlar tashkil qilinib, sayyohlarga mamlakatga tashrif buyurishdan oldin tarixiy va madaniy ob’ektlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, virtual sayohatlar orqali turistlar voqelikni realistik ko‘rinishda anglay olishadi, bu esa ularning manzilga bo‘lgan qiziqishini oshirish va tashrif buyurish ehtimolini ko‘tarishga xizmat qiladi. Bunday raqamli yondashuvlar sayyohlar oqimini ko‘paytirish, marketing samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston turizm bozorining raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Virtual turlarning tashkil qilinishi, mamlakatimizning, jumladan, turizm mintaqalarimizning turistik salohiyatini va imkoniyatlarini asosli va ishonchli tarzda targ‘ib qilish, bo‘lajak turistlar oqimini ko‘paytirish, ularda O‘zbekistonga kelish ishtiyoqini bir necha barobarga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

“3D, 5D yoki 7D panoramali ekskursiya” ya’ni virtual turlar an’anaviy reklama roliklariga nisbatan inson ongi va hissiyotiga tezroq ta’sir ko‘rsatadi. Sababi, bu texnologiyalar yordamida foydalanuvchilar hudud yoki turistik obidalarni 360° burchakda tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Natijada, ularda mazkur mintaqani o‘z ko‘zlari bilan real hayotda ko‘rish istagi kuchayadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh turistik mahsulotlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan, biz axborot texnologiyalariga asoslangan, turistik mahsulotlarning raqamli transformatsiyasini ta’minlovchi yagona “Mintaqaviy turizm portali”ni yaratishni taklif qilamiz. Ushbu platforma turizm mintaqalarining jozibadorligini oshirish, turistik xizmatlarni markazlashtirilgan tarzda taklif etish, virtual sayohatlar orqali sayyohlar oqimini rag‘batlantirish va xalqaro bozorda O‘zbekiston turizm brendining nufuzini oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy geoaxborot texnologiyalari yordamida turistik resurslarning joylashuvi, ularning holati, mavsumiy o‘ziga xosliklari haqida to‘liq ma’lumot olish mumkin. Bu esa turizmni rejalashtirish va rivojlantirishda strategik qarorlar qabul qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Boltabayev, M. R., I. S. Tuxliyev, B. Sh. Safarov, and S. A. Abduhamidov. "Turizm: nazariya va amaliyot: darslik." Toshkent: Fan va texnologiya (2018).

2. Amriddinova, R. S., and S. A. Abdukhamidov. "Factors for Determining the Specialization of the Regions of the Republic of Uzbekistan in Tourism and the Assessment of Tourist Attractiveness." Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance 2.10 (2021): 51-55.

3. Abdukhamidov, S. A. "DISTINCTIVE FEATURES OF REGIONAL TOURISM DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 4 (2019): 337-341.

4. Tukhliev, I. S., S. A. Abdukhamidov, and A. N. Muhamadiev. "Features of the use of digital technology in the development of geographic information systems in tourism." Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems 12.7 Special Issue (2020): 2206-2208.

Xamitov Mubin Xabibjonovich
SamISI "Menejment" kafedrasi dotsenti

MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI SERVIS FAOLIYATIDA RAQAMLI PORTAL VA PLATFORMALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari hamda mehmondo‘stlik industriyasi servis faoliyatida raqamli portal va platformalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: turizm, mehmonxona, mehmondo‘stlik industriyasi, mehmonxona xizmatlari, raqamli texnologiyalar, raqamli portal, onlayn portal, platforma, “UzbekistanPass”, “Uzbekistan.travel”.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ustuvor yo‘nalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish vazifasi qo‘yilgan[44]. Ushbu vazifani bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YaIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, mehmondo‘stlik industriyasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda pandemiyadan keyingi davrda mehmondo‘stlik industriyasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda, bu davlat tomonidan xorijiy sayohatlar uchun maksimal sharoit yaratish va barcha cheklovlarni olib tashlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tufayli amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etish mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini shakllantiradi, bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va raqamli xizmatlar va platforma-lar ishtirokchilarining xabardorligini oshirish orqali turizm mahsulotining deyarli barcha tarkibiy qismlariga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda.

Raqamli platformalar mamlakat mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirishda bugun hal qiluvchi rol o‘ynamoqda va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar bu yil va kelgusi yillarda ham turizm industriyasi pandemiyadan keyingi tiklanish xolati sababli muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Raqamli kontent va onlayn platformalar butun dunyo bo‘ylab potensial mijozlar e’tiborini jalb qilish qobiliyatini oshirishi mumkin, bo‘lajak sayohatni

[44] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

	RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENTSIYALARI TAHLILI	
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	ГЛОБАЛЬНОЕ РАССЛОЕНИЕ: БЕДНОСТЬ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ НЕРАВЕНСТВО В ЦИФРАХ	142-145
Umirzaqova Ravshan	YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA STRATEGIYALARI	146-149
Qurbonov Tolmasjon Namoz O‘G‘Li	“YASHIL IQTISODIYOT”NING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	149-153
Юсупова Нигина Тажиевна	РЕГИОНАЛЬНЫЙ ТУРИСТСКИЙ КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	154-156
II SHO‘BA. ENERGIYA TEJAMKOR VA EKOLOGIK TOZA ISHLAB CHIQARISH - YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDIR		
Abdumalik Bektemirov	QURILISHDA TEJAMKOR VA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	157-160
Abdusalomov Abdushukur A.Bektemirov	YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI STRATEGIYALARI	160-166
Abdusalomov Abdushukur A.Bektemirov	XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLARNING YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI RO‘LI	166-171
Abduhamidov Sarvar Adhamovich	TURISTIK MINTAQALARNI RAQAMLASHTIRISH ORQALI TURISTLARNING SAYOHAT YO‘NALISHINI TANLASH IMKONIYATLARI OSHIRISH YO‘LLARI	171-175
Xamitov Mubin Xabibjonovich	MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI SERVIS FAOLIYATIDA RAQAMLI PORTAL VA PLATFORMALARNING O‘RNI VA	175-180